



Date: 06 May 2026

NODIRA LIRIKASINI INTERFAOL METODLARDA O'QITISH

Vafoqulova Go'zal Ochilovna
Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Nodira lirikasining tarbiyaviy ahamiyati va shoira ijodini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari yoritilgan.


Kalit so'zlar: Tasavvuf, naqshbandiya, islom ruhi, tasavvuf ta'limi, hamnishin olima afifalar, «mukarrar», «qo'sh mukarrar».

Nodira o'z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo'nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo'lidagi ruhiy dunyosini ham juda go'zal va jonli misralarda ifodalab beradi. Nodira she'rlarida islom ruhi, tasavvuf ta'limi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug'ini qidiradi. Nodira saroyda yashasa ham, o'zini ma'naviy jihatdan baxtiyor hisoblay olmas edi. Shuning uchun ham u g'azallaridan birida: «Meni saltanat masnadida ko'rib, gumon etmang ayshu farog'at bilan», deydi. Nodira olimlar, shoirlarni o'z himoyasiga olgan. Shoira o'z devonlarining «hamnishin olima afifalar, fozila hamsuhbat sharifalarning maslahatlari va tashabbuslariga ko'ra jamlangani»ni o'zbekcha devoniga yozgan so'zboshisida qayd etib o'tadi. Nodira mumtoz she'riyatning mavjud hamma janrlarida qalam tebratdi. Uning o'zbekcha va forsiycha g'azallari aruzning turli vaznlarida 5, 7, 9, 13, hatto 18 baytli hajmda yaratilgan. Shoira g'azallarining asosiy qismi 7—9 baytlidir. Nodira mumtoz adabiyot an'alarini qunt va ixlos bilan davom ettirgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Nodira o'z g'azallarida ko'proq «mukarrar» (so'zning takrorlanib kelishi) va «qo'sh mukarrar» usullaridan foydalangan. Asarlarida talmeh, majoz, tashbeh, istiora, tazod, tadrij, tashxis, intoq kabi badiiy vositalar mahorat bilan qo'llangan. Nodira fors-tojik tilida ham go'zal, ta'sirchan she'rlar yozgan. Ular ham mazmun va badiiy mahorat jihatdan o'zbek tilidagi g'azallaridek yuksak darajada yozilgan bo'lib, shoira ijodini yana ham keng va to'laroq o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Nodira ijodiga bo'lgan qiziqish shoira hayotlik davridayoq boshlangan. Mashhur shoira Dilshod (1800—1905) Nodiraga maxsus g'azallar bag'ishlab, uni «ilm-adabi va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlar g'azalxonisi, shakar sochuvchi bulbul» deb ta'riflaydi. Nodira g'azallariga juda ko'p shoirlar naziralar yozganlar, muxammas bog'laganlar.





**Uvaysiy, Amiriy va Nodira ijodidagi
o`xshashlik va farqlar
“Venn diagrammasi” usulida**



**Uvaysiy, Amiriy va Nodira ijodidagi
o`xshashlik va farqlar
“Venn diagrammasi” usulida**





“SWOT” (“KOIT”) usuli

Kuchli tomon	
Ojiz tomon	
Imkoniyatlar	
To’siqlar	

Nodira hayotiga doir savollar “6x6” usulida

1. Qaysi shoir Nodirani “Jahon mamlakatlarning Bilqisi” deb ta’riflaydi?
2. Nodira asarlarining umumiy miqdori qancha?
3. Nodiraning asl ismi nima va yana qanday taxalluslarda ijod qilgan?
4. Bizgacha Nodiraning nechta devoni yetib kelgan?
5. “Firoqnoma” muashsharida qaysi g’oya kuchli targ’ib qilinadi?
6. Shayx San’on timsoli Nodiraning qaysi g’azalida uchraydi?

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan shoirlardan kimlarni bilasiz?
2. Nodiraning o‘zbek she’riyatida rivojida o‘rni qanday?
3. Nodiraning hayot yo‘li asarlarida qanday namoyon bo‘lgan?
4. Nodira she’riyatida nima uchun hijron ohanglari mavjud?
Nodira she’riyatining bosh qahramoni kim?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Adabiyot” (B.Qosimov va boshqalar) 10-sinf . Toshkent. 2004-yil.
2. A.Rafiev va boshq.O‘zbek adabiyotidan dars turlari. Met-k qo‘llanma. – T.: 1995-yil

